

TALABANING AQLIY QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH USULLARI

Narziyeva Nargiza Norkuziyevna

SamDVMChBU dotsenti, PhD

nargizanarziyeva09@gmail.com

Murodov Sherzodjon Faxriddin o'g'li, talaba

Dolleyev Biloliddin Abduqosim o'g'li, talaba

Annotatsiya. Mazkur maqolada talabalarning aqliy qobiliyatini rivojlantirishning nazariy asoslari, zamonaviy pedagogik yondashuvlar hamda samarali metod va vositalar tahlil qilinadi. Shuningdek, oliy ta'lim jarayonida talabalarning mantiqiy fikrlashi, ijodkorligi, mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirish yo'llari yoritiladi.

Kalit so'zlar: aqliy qobiliyat, tafakkur, kreativlik, tanqidiy fikrlash, mustaqil ta'lim, interfaol metodlar, motivatsiya.

METHODS OF DEVELOPING STUDENTS' MENTAL ABILITIES

Abstract. This article analyzes the theoretical foundations for developing students' intellectual abilities, modern pedagogical approaches, and effective methods and tools. It also highlights ways to develop logical thinking, creativity, and independent decision-making skills in students during higher education.

Keywords: intellectual ability, thinking, creativity, critical thinking, independent learning, interactive methods, motivation.

МЕТОДЫ РАЗВИТИЯ УМСТВЕННЫХ СПОСОБНОСТЕЙ СТУДЕНТОВ

Аннотация. В данной статье анализируются теоретические основы развития интеллектуальных способностей студентов, современные педагогические подходы, а также эффективные методы и инструменты. Также освещаются пути развития логического мышления, креативности и навыков самостоятельного принятия решений у студентов в процессе высшего образования.

Ключевые слова: интеллектуальные способности, мышление, креативность, критическое мышление, самостоятельное обучение, интерактивные методы, мотивация.

Kirish. Bugungi globallashuv va raqamli jamiyat sharoitida oliy ta'lim tizimi oldida turgan asosiy vazifalardan biri – talabaning intellektual salohiyatini rivojlantirishdir. Aqliy qobiliyat nafaqat bilimni o'zlashtirish, balki uni tahlil qilish, umumlashtirish, amaliyotga tatbiq etish va yangi g'oyalar yaratish jarayonida

namoyon bo'ladi. Shuning uchun zamonaviy pedagogika talabani faol, mustaqil va ijodiy fikrlovchi shaxs sifatida shakllanishiga yo'naltirilgan.

Faoliyat turlari, jismoniy va aqliy harakatlar har qanday faoliyat real shart-sharoitlarda, turli usullarda va turlicha ko'urinishlarda namoyon bo'ladi. Qilinayotgan har bir harakat ma'lum narsaga – predmetga qaratilgani uchun ham, faoliyat predmetli harakatlar majmui sifatida tasavvur qilinadi. Predmetli harakatlar tashqi olamdagi predmetlar xususiyatlari va sifatini o'zgartirishga qaratilgan bo'ladi. Masalan, ma'ruzani konspekt qilayotgan talabani predmetli harakati yozuvga qaratilgan bo'lib, u avvalo usha daftardagi yozuvlar soni va sifatida o'zgarishlar qilish orqali, bilimlar zahirasi boyitayotgan bo'ladi. Faoliyatning va uni tashkil etuvchi predmetli harakatlarning aynan nimalarga yo'naltirilganiga qarab, avvalo tashqi va ichki faoliyat farqlanadi. Tashqi faoliyat shaxsni o'rab turgan tashqi muhit va undagi narsa va hodisalarni o'zgartirishga qaratilgan faoliyat bo'lsa, ichki faoliyat – birinchi navbatda aqliy faoliyat bo'lib, u sof psixologik jarayonlarning kechishidan kelib chiqadi. Kelib chiqishi nuqtai nazaridan ichki-aqliy, psixik faoliyat tashqi predmetli faoliyatdan kelib chiqadi. Dastlab predmetli tashqi faoliyat ro'y beradi, tajriba orttirib borilgan sari sekin-asta bu harakatlar ichki aqliy jarayonga aylanib boradi. Buni nutq faoliyati misolida oladigan bo'lsak, bola dastlabki so'zlarni qattiq tovush bilan tashqi nutqida ifoda etadi, keyinchalik ishida o'zicha gapirishga o'rganib, o'ylaydigan, mulohaza yuritadigan, o'z oldiga maqsad va rejalar qo'yadigan bo'lib boradi. Har qanday sharoitda ham barcha harakatlar ham ichki-psixologik ham tashqi muvofiqlik nuqtai nazaridan ongi tomonidan boshqarilib boradi. Har qanday faoliyat tarkibida ham aqliy, ham jismoniy–motor harakatlar mujassam bo'ladi. Masalan, fikrlayotgan donishmandni kuzatganmisiz? Agar o'ylanayotgan odamni ziyraklik bilan kuzatsangiz, undagi yetakchi faoliyat aqliy bo'lgani bilan uning peshonalari, ko'zlari, hattoki, tana va qo'l harakatlari juda muhim va jiddiy fikr xususida bir to'xtamga kelolmayetganidan, yeki yangi fikrni topib, undan mamnuniyat xis qilayetganligidan darak beradi. Bir qarashda tashqi elementar ishni amalga oshirayotgan – misol uchun, uzum kuchatini ortiqcha barglardan xalos etayotgan bog'bon harakatlari ham aqliy komponentlardan xoli emas, u qaysi bargning va nima uchun ortiqcha ekanligidan anglab bilib turib olib tashlaydi.

Aqliy qobiliyat tushunchasi va uning tarkibiy qismlari

Aqliy qobiliyat – bu shaxsning tafakkur jarayonlari (tahlil, sintez, taqqoslash, umumlashtirish, xulosa chiqarish) orqali bilimlarni o'zlashtirish va yangi bilim hosil qilish imkoniyatidir.

Aqliy qobiliyat quyidagi tarkibiy qismlardan iborat:

- **Mantiqiy fikrlash** – muammolarni izchil va asosli hal etish;
- **Tanqidiy fikrlash** – axborotni tahlil qilish va baholash;
- **Kreativ fikrlash** – yangicha g'oya va yechimlar yaratish;
- **Analitik tafakkur** – murakkab masalalarni qismlarga ajratib o'rganish;
- **Mustaqil fikrlash** – o'z pozitsiyasini shakllantirish va himoya qilish.

Aqliy harakatlar shaxsning ongli tarzda, ichki psixologik mexanizmlar vositasida amalga oshiradigan turli – tuman harakatlardir. Eksperimental tarzda shu narsa isbot qilinganki, bunday harakatlar doimo motor harakatlarni ham o‘z ichiga oladi. Bunday harakatlar quyidagi ko‘rinishlarda bolishi mumkin: perseptiv - ya’ni bular shunday harakatlarki, ularning oqibatida atrofdagi predmetlar va hodisalar to‘g‘risida yaxlit obraz shakllanadi; mnemik faoliyat – narsa va hodisalarning mohiyati va mazmuniga aloqador materialning eslab qolinishi, esga tushirilishi hamda esda saqlab turilishi bilan bog‘liq murakkab faoliyat turi; fikrlash faoliyati - aql, faxm-farosat vositasida turli xil muammolar, masalalar va jumboqlarni yechishga qaratilgan faoliyat; imajitiv – (“image”-obraz so‘zidan olingan) faoliyati shundayki, u ijodiy jarayonlarda xayol va fantaziya vositasida hozir bevosita ongda berilmagan narsalarning xususiyatlarini anglash va xayolda tiklashni taqozo etadi. Yuqorida ta’kidlaganimizdek, har qanday faoliyat ham tashqi harakatlar asosida shakllanadi va motor komponentlardan iborat bo‘lishi mumkin. Agar tashqi faoliyat asosida psixik jarayonlarga o‘tish ro‘y bergan bo‘lsa, bunday jarayonni psixologiyada interiorizatsiya deb ataladi, aksincha, aqlda shakllangan g‘oyalarni bevosita tashqi harakatlarda yoki tashqi faoliyatga ko‘chirilishi eksteriorizatsiya deb yuritiladi. Faoliyat turlari yana ongning bevosita ishtiroki darajasiga ko‘ra ham farqlanadi. Masalan, shunday bo‘lishi mumkinki, ayrim harakatlar boshida har bir elementni jiddiy ravishda, alohida-alohida bajarishni va bunga butun diqqat va ongning yo‘nalishini talab qiladi. Lekin vaqt o‘tgach, bora-bora unda ongning ishtiroki kamayib, ko‘pgina qismlar avtomatlashib boradi. Bu oddiy tilga o‘girilganda, malaka hosil bo‘ladi deyiladi. Masalan, har birimiz shu tarzda xat yozishga o‘rganganmiz. Agar malakalarimiz qat’iy tarzda bizdagi bilimlarga tayansa, faoliyatning maqsadi va talablariga ko‘ra harakatlarni muvaffaqiyatli bajarishni ta’minlasa, biz buni ko‘nikmalar deb ataymiz. Ko‘nikmalar – doimo bizdagi aniq bilimlarga tayanadi. Masalan, ko‘nikma va malakalar o‘zaro bog‘liq bo‘ladi, shuning uchun ham o‘quv faoliyati jaarayonida shakllanadigan barcha ko‘nikmalar va malakalar shaxsning muvaffaqiyatli o‘qishini ta’minlaydi. Ikkalasi ham mashqlar va qaytarishlar vositasida mustahkamlanadi. Agar, faqat malakani oladigan bo‘lsak, uning shakllanish yo‘llari quyidagicha bo‘lishi mumkin: oddiy namoyish etish yo‘li bilan; tushuntirish yo‘li bilan; ko‘rsatish bilan; tushuntirishni uyg‘unlashtirish yo‘li bilan. Hayotda ko‘nikma va malakalarning ahamiyati katta. Ular bizning jismoniy va aqliy urinishlarimizni yengillashtiradi va o‘qishda, mehnatda, sport sohasida va ijodiyotda muvaffaqiyatlarga erishishimizni ta’minlaydi.

Talabning aqliy qobiliyatini rivojlantirish usullari:

1. Interfaol ta’lim metodlari

Interfaol metodlar talabning o‘quv jarayonidagi faolligini oshiradi. Jumladan:

- “Aqliy hujum” (Brainstorming)
- “Klaster” usuli
- Munozara va debatlar
- Case-study (vaziyatli masalalar)
- Loyihaviy ta’lim

Bu metodlar orqali talabalar mustaqil fikr yuritish, dalillash va muammoli vaziyatlarni hal qilish ko‘nikmalariga ega bo‘ladilar.

2. Muammoli ta’lim texnologiyasi

Muammoli ta’lim talabalarda izlanish va tadqiqotchilik ko‘nikmasini shakllantiradi. O‘qituvchi tomonidan muammoli savollar qo‘yilishi talabani tafakkurini faollashtiradi va bilimlarni chuqurroq o‘zlashtirishga yordam beradi.

3. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun quyidagi usullar samarali hisoblanadi:

- Tahliliy savollar berish
- Qarama-qarshi fikrlarni solishtirish
- Ilmiy maqolalarni tahlil qilish
- “Insert” texnikasi

Bu jarayon talabani mustaqil xulosa chiqarish qobiliyatini mustahkamlaydi.

4. Kreativlikni rivojlantirish

Ijodiy topshiriqlar, loyiha ishlari, prezentatsiyalar tayyorlash, innovatsion g‘oyalar ishlab chiqish talabalarning kreativ tafakkurini rivojlantiradi. Raqamli texnologiyalar va multimedia vositalaridan foydalanish ham ijodkorlikni oshiradi.

5. Mustaqil ta’limni tashkil etish

Mustaqil o‘qish, ilmiy manbalar bilan ishlash, referat va kurs ishlari yozish, tadqiqot olib borish talabani aqliy faolligini oshiradi. Bu jarayonda o‘qituvchi yo‘naltiruvchi va maslahat beruvchi rolini bajaradi.

6. Motivatsiyani oshirish

Shaxsning jamiyatdagi ijtimoiy xulqi va o‘zini qanday tutishi, egallagan mavqei ham sababsiz, o‘z-o‘zidan ro‘y bermaydi. Faoliyatning amalga oshishi va shaxs xulq-atvorini tushuntirish uchun psixologiyada “motiv” va “motivatsiya” tushunchalari ishlatiladi. “Motivatsiya” tushunchasi “motiv” tushunchasidan kengroq ma’no va mazmunga ega. Motivatsiya – inson xulq-atvori, uning bog‘lanishi, yo‘nalishi va faolligini tushuntirib beruvchi psixologik sabablar majmuini bildiradi. Bu tushuncha u yoki bu shaxs xulqini tushuntirib berish kerak bo‘lganda ishlatiladi, ya’ni: “nega?”, “nima uchun?”, “nima maqsadda?” degan savollarga javob qidirish - motivatsiyani qidirish demakdir. Demak, u xulqning motivatsion tasnifini yoritishga olib keladi.

Talabani ichki motivatsiyasi uning intellektual rivojlanishida muhim omildir. Rag‘batlantirish, individual yondashuv, muvaffaqiyatni e’tirof etish aqliy faollikni oshiradi.

Talabani aqliy qobiliyatini rivojlantirish uzluksiz va tizimli pedagogik jarayon bo‘lib, u interfaol metodlar, muammoli ta’lim, tanqidiy va kreativ fikrlashni shakllantirish, mustaqil ta’lim hamda motivatsiyani oshirish orqali amalga oshiriladi. Zamonaviy oliy ta’lim tizimida talaba shaxsini har tomonlama rivojlantirish, uning intellektual salohiyatini yuksaltirish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Narzieva, N. N. (2019). Formation of research skills in general education school students based on basic competencies: ped. science...(PhD) diss. *Samarkand: SamDU*.
2. Alimova, S. G., Nargiza, N. N., Ikromjonovna, J. S., Lola, R. D., Isabayeva, D. K., & Sherali, Q. U. (2025). The Role of Educational Management in Improving the Quality of Teaching and Learning. *Cadernos de educação, tecnologia e sociedade Учредители: University of Minho*, 18, 187-194.
3. Narzieva, N. N. (2024). Development of research competencies in the conditions of integrated education in students on the base of a competent approach. *Current Research Journal of Pedagogics*, 5(2), 16-21.
4. Khusenova, N. I., Fayzieva, F. N., Narzieva, N. N., & Rajabova, G. R. (2019). THE CONTENT OF TEACHING LISTENING IN ENGLISH AT ELEMENTARY SCHOOL. In *EUROPEAN RESEARCH: INNOVATION IN SCIENCE, EDUCATION AND TECHNOLOGY* (pp. 45-47).
5. Hasanovna, S. K., & Nargiza, N. (2019). The advantages of teaching grammar through games. *Достижения науки и образования*, (6 (47)), 30-31.
6. Нарзиева, Н. (2017). Формирование исследовательских компетенции у учащихся на основе интегративного подхода. In *WORLD SCIENCE: PROBLEMS AND INNOVATIONS* (pp. 156-158).
7. Narzieva, N. N. (2017). Development of Education and Research Activity Profile Class Students on the Basis of Integrative and Personal Approach. *www.auris-verlag.de*.
8. Narzieva, N. N. (2023). DEVELOPMENT OF RESEARCH COMPETENCES OF VETERINARY SPECIALISTS IN THE MODERNIZATION OF VETERINARY EDUCATION. *International Journal of Engineering Mathematics (Online)*, 5(3).
9. Narzieva, N. N. (2023). OLIY TA'LIM O 'QITUVCHILARINING INNOVATION PEDAGOGIK FAOLIYATINI INGLIZ TILI O 'QITUVCHILARI MISOLIDA TASHKIL QILISHNING MAZMUNI VA MOHIYATI. 2016 No. 6 (100/1), 100(66), 5-10.
10. Narzieva, N., Namazova, U., & Ernazarov, T. (2022). FACTORS OF THE DEVELOPMENT OF SOCIO-CULTURAL COMPETENCE OF HISTORY TEACHERS IN THE PROCESS OF PROFESSIONAL DEVELOPMENT. *THEORETICAL & APPLIED SCIENCE Учредители: Теоретическая и прикладная наука*, (5), 171-173.
11. Ulugmurodova, G. F., Nurmanova, N. N. Z., & Musayeva, N. A. (2020). SINFDAN TASHQARI O'QISH DARSLARIDA INNOVATION METODLAR ORQALI ALISHER NAVOIY ASARLARINI O'QUVCHILARGA O'RGATISH (1-SINF MISOLIDA). *Интернаука*, (29), 55-56.
12. Рахимов, Б. Х., & Нарзиева, Н. Н. (2016). ТЕХНОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ СОВРЕМЕННОГО ПОДХОДА К ОБУЧЕНИЮ. In *Образование через всю жизнь: непрерывное образование в интересах устойчивого развития* (pp. 356-360).

13. Назарова, Б., Нарзиева, Н., Умаров, Х., Машарипов, К., & Кулахметова, М. (2011). ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА ПРОЦЕСС ФОРМИРОВАНИЯ НАУЧНОГО МИРОВОЗЗРЕНИЯ СТУДЕНТОВ. *Педагогические науки*, (1), 147-151.

14. Нарзиева, Н. Н., & Гаппарович, Х. А. ТАЯНЧ КОМПЕТЕНЦИЯЛАР АСОСИДА ЎҚУВЧИЛАРНИНГ ИЗЛАНИШ, ТАДҚИҚОТ МАДАНИЯТИНИ БОСҚИЧМА-БОСҚИЧ ШАКЛЛАНТИРИШ ТЕХНОЛОГИЯСИ. *НАМАНГАН ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ-2021*, 1, 528.